“SHALOLA” MAHALLA FUQAROLAR YIG‘INI BAYONNOMASIDAN
KO‘CHIRMA, _____ 2025 YIL

ISHTIROK ETDI:
Mahalla raisi: Abdullayev K.
“Shalola” mahallasi aholisi 30 kishidan iborat bo‘lib, xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda (niqoblarda, masofa saqlangan holda) ishtirok etdi.
Toshkent davlat tibbiyot universiteti, yuqumli va bolalar yuqumli kasalliklari kafedrasi o‘qituvchilari: dotsent Raxmatullayeva Sh. B., Mo‘minova M. T., assistent Sadikov X. M. A. Melikuziyev O. E., Faxritdinova D. M., Ikramov U. E., Mirxoshimov M.B.

KUN TARTIBI:

MAVZU BO‘YICHA HISOBOT: DUNYODA GRIPP (INFLUENZA) INFEKSIYASI, KLINIK KO‘RINISHLARI VA OLDINI OLISH CHORALARI.

Dotsent Mo‘minova M. T., dunyoda va O‘zbekistonda gripp infeksiyasining tarqalishi, mavsumiy ko‘tarilishlar, virusning turli shtammlari hamda aholi o‘rtasida uchrayotgan yangi holatlar haqida ma’lumot berdi.

Assistent Faxritdinova D. M., gripp infeksiyasining bolalar, keksalar va surunkali kasalligi bor shaxslarda kechishi haqida so‘zlab berdi. Aksariyat hollarda gripp kasalligi yengil yoki o‘rtacha og‘irlikda kechadi, biroq ayrim guruhlarda asoratlar rivojlanishi mumkinligini ta’kidladi. Eng ko‘p uchraydigan alomatlar: tana haroratining ko‘tarilishi;
quruq yoki nam yo‘tal; umumiy holsizlik va charchoq; bosh og‘rig‘i; mushak va bo‘g‘imlarda og‘riq.
Ba’zi hollarda quyidagi belgilar ham kuzatilishi mumkin: tomoq og‘rig‘i; burun bitishi yoki oqishi; ko‘ngil aynishi, qusish; bolalarda ich ketishi.

Assistent Ikramov U. E. gripp infeksiyasining yuqish yo‘llari haqida ma’lumot berdi. Unga ko‘ra, infeksiya asosan havo-tomchi yo‘li orqali yuqadi. Inkubatsiya davri odatda 1–4 kunni tashkil etadi. Shuningdek, grippning oldini olish choralari – mavsumiy emlash, shaxsiy gigiyena qoidalariga rioya qilish, niqob taqish, gavjum joylarda ehtiyot choralarini ko‘rish va kasallik belgilari paydo bo‘lganda shifokorga murojaat qilish zarurligini ta’kidladi.

“Shalola” mahalla fuqarolar yig‘ini raisi: **Abdullayev K.**